



KUZGI BUG'DOYNING "YAKSART" VA "ZVEZDA" NAVLARINI O'SISH VA RIVOJLANISH FAZALARIGA O'G'ITLASH MEYORINING TA'SIRI.

Kamolov Po'lat

Urganch Davlat Universiteti Tuproqshunoslik va agronomiya
kafedrası q.x.f.n. dotsent.

Jumaniyozova Lola Xudayberganovna

Urganch Davlat Universiteti, Tuproqshunoslik va
agronomiya kafedrası magistri

Matyakubova Maftuna Muzaffar qizi

Urganch Davlat Universiteti, Tuproqshunoslik va agronomiya
kafedrası magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7981473>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-May 2023 yil

Ma'qullandi: 26-May 2023 yil

Nashr qilindi: 29-May 2023 yil

KEY WORDS

*bug'doy, yaksart navi, zvezda
navi, o'g'it meyor, fenofaza*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Xorazm viloyat sharoitida kuzgi
bug'doyning "Yaksart" va "Zvezda" navlariga mineral
o'g'itlarning turli me'yorlarini o'sish, rivojlanish va
hosildorligiga ta'siri o'rganildi.*

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida boshqoqli don ekinlari shu jumladan, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil etishtirish barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli olib borishga bog'liqdir.

Kuzgi bug'doy o'suv davrida bir nechta fenologik davrlarni o'tishi aniqlangan har bir davr tuzilishi, ko'rinishi va sifati jixatidan bir –biridan farq qiladi. Kuzgi bug'doyda quyidagi asosiy fenologik davrlar aniqlangan: maysalanish, tuplanish, nay o'rash, boshqoqlash, gullash va pishish. Har bir yangi davrga 10 % o'simlik o'tganda navbatdagi davrning boshlanishi qayd qilinadi, agar 75% o'simlik o'tganligi aniqlansa, demak bu davrga o'simlik to'la o'tgan deb hisoblanadi. [1]

Rivojlanish davrlarning almashinivu o'simliklarda yangi organlarning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

Bug'doy o'simligi rivojlanish davrida bir nechta organogeniz bosqichlarini o'taydi. Bu bosqichlar yangi organlarni paydo bo'lishi tuzilishini o'zgarishi bilan harakterlanadi. F M Kupermon organogenezni 12 bosqichga ajratadi:

- I- dastlabki poya o'sish konusini shakllanishi;
- II- o'sish konusini boshlang'ich bo'g'inlar, bo'g'in oraliqlari va poya barglariga ajralishi;
- III- o'sish konusini cho'zilishi bilan boshqoq sigmentlarini hosil bo'lishi;
- IV- boskichga do'ngliklarini paydo bo'lishi va shakllanishi;
- V- gul do'ngliklarini paydo bo'lishi va shakllanishi;
- VI- gul to'plam va gullarning shakllanishi;
- VII - boshqoqni hamma organlarini bo'yiga tez o'sishi;

- VIII-gul to'plam va gullarning shakllanishini tamomlanishi (boshqolash fazasi);
- IX-otalanish va zigotaning hosil bo'lishi;
- X-donning o'sishi va shakllanishi
- XI-donda oziqa moddalarini to'planishi doning (sut pishishidan mum pishishigacha);
- XII- dondagi oziqa moddalarni zaxiraga aylanishi.

Kuzgi bug'doyning rivojlanish sikli ikki davrda birinchisi kuzda-ekishdan to qishki doimiy sovuq tushgungacha, ikkinchisi erta ko'klamdan hosil etilguncha o'tadi.

Bu ikki davr orasidagi vaqtda, ya'ni qishda o'simlik tinim xolatida bo'ladi. Kuzgi bug'doy kuzning o'zidayok maysa chiqaradi, tuplaydi va shu tuplanish fazasida qishlaydi. Tuplanish fazasi o'simliklarni qishlashi uchun eng qulay davr hisoblanadi.[1]

Ilmiy tadqiqot uslubi. Tajribada kuzgi bug'doyning asosiy rivojlanish davrlarini o'tishi kuzatildi. Bu kuzatishlar G.G.Gataulina va M.G.Ob'edkov (2000) uslubiyatlari bo'yicha olib borildi. Buning uchun hisoblash maydonchasidan 0,25 m² (0,50 sm x 0,50 sm) joy ajratilib va shu joydagi hisobli o'simliklarning (25 ta) unib chiqish, tuplanish, naychalash, boshqolash, gullash va pishish (sut, mum, to'a pishish) davrlari ustida kuzatish ishlari olib borildi.[4]

Tadqiqot natijalari.

Olib borilgan tajribada ham kuzgi bug'doyning YAKsart va Zvezda navlarini fazalar bo'yicha o'sish va rivojlanishga o'g'itlar turlarining ta'siri quyidagicha bo'ldi. (jadval-1).

Bug'doyning "Yaksart" va "Zvezda" navlarini o'sish va rivojlanish fenologik fazalariga o'g'itlash meyorining ta'siri.

jadval -1

Variant		Unib chiqishi	Tuplanish	Nay o'rash	Boshqolash	Gullash	Pishish		
Nav	O'g'it turlari						Sut	Mum	To'la
Yaksart	NP	26 IX 8- kun	16 X 29-kun	15 III 149- kun	10 IV 175-kun	21 IV 186- kun	11 V 206- kun	18 V 213- kun	25 V 220- kun
	NK	26 IX 8-kun	16 X 29-kun	15 III 149- kun	10 IV 175-kun	21 IV 186- kun	11 V 206- kun	18 V 213- kun	25 V 220- kun
	PK	26 IX 8-kun	16 X 29-kun	15 III 149- kun	9 IV 174-kun	20 IV 185- kun	10 V 205- kun	17 V 212- kun	25 V 220- kun
	NPK	26 IX 8-kun	16 X 29-kun	15 III 149- kun	10 IV 175-kun	21 IV 186- kun	11 V 206- kun	18 V 213- kun	25 V 220- kun
Zvezda	NP	27 IX 9-kun	17 X 30-kun	16 III 150- kun	14 IV 179-kun	28 IV 193- kun	20 V 215- kun	29 V 224- kun	7 VI 233- kun
	NK	27 IX 9-kun	17 X 30-kun	16 III 150- kun	14 IV 179-kun	28 IV 193- kun	20 V 215- kun	29 V 224- kun	7 VI 233- kun

	PK	27 IX 9-kun	17 X 30-kun	16 III 150- kun	13 IV 178-kun	27 IV 192- kun	19 V 214- kun	28 V 223- kun	6 VI 232- kun
	NPK	27 IX 9-kun	17 X 30-kun	16 III 150- kun	14 IV 179-kun	28 IV 193- kun	20 V 215- kun	29 V 224- kun	7 VI 233- kun

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki mineral o'g'it turlari kuzgi bug'doyning o'sish va rivojlanishining dastlabki davrlarda ta'sir ko'rsatmadi. Yaksart navini unib chiqish fazasida hamma variantlarda bir xil natija kuzatildi.

Tuplanish fazasida ham bir xil natija, tuplanish fazasi tinim davri bilan qo'shib hisoblanganida hamma variantlarda 120 kunni tashkil etdi.

Nay o'rash fazasida ham bir xil vaziyat kuzatildi. Boshqoqlash fazasida RK qo'llanilgani variantda boshqa variantlarga nisbatan 1 kun erta rivojlanganligi qayd etildi. Gullash, sut va mum pishish fazasida ham xuddi shu xolat kuzatildi. Ammo to'la pishish davrida barcha variantda bir xil natija, ya'ni 25 may kuni pishib etilgani aniqlandi.

Zvezda navi sinalgan variantlarga nisbatan 1 kun keyin rivojlandi. Variantlar bo'yicha bir xil natija kuzatildi. Boshqoqlash, gullash, sut va mum pishish davrlarida boshqa variantlarga nisbatan 1 kun oldin rivojlanganligi qayd etildi. To'la pishish fazasida NP, NK va NPK variantlari 7 iyun kuni, RK variantida esa don 6 iyun kuni pishib etilganligi kuzatildi.

Xulosa

1. O'g'it turlari kuzgi bug'doy o'simligini vegetatsiya davri o'zunligiga ta'sir ko'rsatmadi. Ammo, Yaksart navi (220 kun) Zvezda navi esa (230 kunda) pishib yetildi. Demak, Yaksart navi Zvezdaga nisbatan tezroq pishib yetildi.

2. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin ekish uchun kuzgi bug'doyning boshqa navlarga nisbatan erta muddatlarda, Yaksart navi 220 kunda pishib etildi.

3. Navlar bo'yicha Zvezda navi nisbatan Yaksart navi 13 kun oldin pishib yetilganligi kuzatildi.

Adabiyotlar:

1. Yormatova D. «Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi». Toshkent. 2000 y. 35-bet.
2. Usmonov I. Mirzaev O. Azizov B. «Mineral o'g'itlar me'yorini kuzgi bug'doy don hosildorligi va urug' ekish sifatiga ta'siri».
3. To'raev A. To'raev R. «Kuzgi bug'doyni o'g'itlash va sug'orish me'yorlari». O'zbekiston k/x jurnali. 2003 y. № 5 34-35 bet.
4. Гатаулина Г. Г., Обьедков М. Г. «Практикум по растениеводству» Учебное пособие для студ. сред. спец. учеб. Заведений. 2000г. 216с